

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## XX ASR 80-90 YILLAR O'ZBEK SHE'RIYATI OBRAZLARINING REALISTIK XUSUSIYATLARI

**Xurshida Nishonova Yusufjanovna**

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi*

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, tayanch doktoranti*

[khurshidanishonova@gmail.com](mailto:khurshidanishonova@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Obraz va uning tabiati adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir. Bu ijodkorning adabiyotda o'z badiiy, falsafiy g'oyalari tizimini yaratishi demakdir. Adabiyot paydo bo'lganidan beri muallif aytmqchi bo'lgan fikr so'z, obraz, g'oya sifatida voqelangan va bu hodisa qonuniyatga aylangan. Ijodkor obraz vositasida borliqni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi. Mazkur maqolada poetik obrazning so'z san'atidagi o'rni va nazariy masalalari, XX asrning 80-90 yillar o'zbek she'riyatidagi poetik obraz tabiati haqida so'z boradi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada ko'tarilgan mavzuning ahamiyati va dolzarbligi muhim o'rin tutadi.*

**Kalit so'zlar:** *Poetik obraz tabiati, mavzu va g'oya munosabati, ijtimoiy ong, fikrlar xilma-xilligi, baholash mezonlari.*

**Абстрактный:** *Образ и его характер — главный фактор, определяющий совершенство литературы и уровень писательского мастерства. Это значит, что творец создает в литературе систему своих художественно-философских идей. С момента возникновения литературы мысль, которую хочет выразить автор, реализовалась как слово, образ и идея, и это явление стало законом. Художник воспринимает существование через изображение, выражает суть воспринимаемого им и свое эмоциональное отношение к воспринимаемому. В этом смысле образ считается способом мышления в литературе и искусстве. В данной статье говорится о месте и теоретических вопросах поэтического образа в искусстве слова, природе поэтического образа в узбекской поэзии 80-90-х годов XX века. В связи с этим важна важность и актуальность темы, поднятой в данной статье.*

**Ключевые слова.** *Характер поэтического образа, соотношение субъекта и идеи, общественное сознание, многообразие мнений, критерии оценки.*

**Abstract:** *The image and its nature is the main factor that determines the perfection of literature and the level of the writer's skill. This means that the creator creates a system of his artistic and philosophical ideas in literature. Since the beginning of literature, the thought that the author wants to express has been realized as a word, image, and idea, and this phenomenon has become a law. The artist perceives existence through the image, expresses the essence he perceives and his emotional attitude to what he perceives. In this sense, the image is considered a way of thinking in literature and art. This article talks about the place and theoretical issues of the poetic image in the art of words, the nature of the poetic image in the Uzbek poetry of the 80s and 90s of the 20th century. In this regard, the importance and relevance of the topic raised in this article is important.*

**Keywords:** *The nature of the poetic image, the relationship between the subject and the idea, social consciousness, diversity of opinions, evaluation criteria.*

She'riyatdagi obraz real hayot natijasidir. Ular hayot haqiqatini aks ettirish barobarida umumlashma fikrni ham ifodalaydi. Unda muallif hayot haqiqatini

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

anglash o‘laroq, anglatibgina qolmay go‘yoki rassom singari o‘z dunyosini yaratadi. “Obrazning bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarining dinamik birlashuvi uning dominantasi bilan, yoki boshqacha qilib aytganda, ham butun asarning, ham uning alohida qismlarining asosiy g‘oyasi paydo bo‘ladigan ijodiy ish davrida shakllanadigan o‘zagi bilan belgilanadi. Asarning asosiy g‘oyasi, uning alohida qismlari, asoslari va obrazlari to‘g‘risidagi tasavvurlar o‘zgarishi, boshqa shaklga kirishi mumkin, lekin uning birlamchi negizi ana shu o‘zanligicha qolib, unga asarning barcha badiiy xususiyatlari birlashadi. Ijodiy g‘oya batamom yetilib bo‘lgandan so‘ng, yozuvchi ishga kirishgan davrda uning emosional imkoniyatlari ortib boradi”[7.50].

Badiiy obraz shoir xayolotida anglangan, qayta ishlangan va anglatilgan hodisadir. Obraz butun anglovlarning qismi sifatida tushunilishi mumkin. Shundan kelib chiqib quyidagilarni orbazni anglash mezonlari sifatida oldik:

a) obraz – hayot haqiqatlarining tafakkurimizdagi badiiy ifodasi.

b) obraz – o‘zi ifodalayotgan real borliqdan ajralmagan, uzilmagan holda shoirning shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

s) obraz shoir badiiy-estetik qarashlarining ayrim jihatlarini anglashda qo‘l keladi. U orqali o‘quvchi badiiy matnni o‘qish va tahlillash jarayonida ijodkorning demoqchi bo‘lgan fikrini tushuna oladi.

d) obraz to‘liq aspektida o‘zida ramz tashiydi. Shuning uchun ular turlicha talqin qilinishi mumkin.

ye) obraz o‘zida g‘oyani aks ettiradi. Har bir obrazga munosabatni beishda uning mohiyatiga yashiringan g‘oyani zamon va makon nuqtai nazarida tushunish muhim. Bunda o‘quvchi qarashlari muhimdir.

Iogannes Bexer “Yomon rasmlarning aybi yomon chizilganida emas, balki yomon o‘ylanganidadir”, - degan fikri bor. Demakki, ijod mahsulining qiymati uning bahosi bilan emas, uni yaratgan iste’dod shaxsiyati bilan o‘lchanar ekan so‘z san’ati uchun ham bu mezon birdek taalluqli. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, “yaxshi obraz”, “yomon obraz”, “ideal obraz”, “o‘rtamiyona obraz” degan tushunchaning o‘zi yo‘q. Aksincha, obraz ijodkorning o‘y-fikri, dunyoqarashi mahsuli ekan, biz obraz haqida fikr bildirayotganda ijodkor shaxsiyati, u yashab ijod qilgan zamon va makon, e’tiqod qilayotgan ishonch mezonlarini hisobga olishimiz shart.

Kuzatishlarga ko‘ra, ijodkorlarning aksariyati dastlab kichik she’rlar yozadilar. Unda asosan tasvir, aytilmoqchi bo‘lgan fikr syujetli uchulda taqdim etiladi. Lirik asarlarda syujet ko‘p tarmoqli, ko‘p liniyali bo‘lmaydi. Maqsad biror voqeaga lirik

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

munosabat orqali shoirlar hayot haqiqati haqidagi anglovlarini beradilar. Bunda voqelikka munosabat ijtimoiy, real ba’zan psixologik bo’lishi mumkin. Munosabat so’zlarga singdiriladi, so’zlar shoir aytmoqchi fikr zalvorini o’zida tashiydi. Bu zalvor so’zni obrazga aylantiradi. So’zlar ichki bir bog’liqlik bilan fikrga ulanadi. So’zni his qila olish iqtidor va anglov bilan bog’liq. Ijodiy asar o’lchovi ham shoirning asarlari, asarda obrazga singdirilgan tabiatga nisbatan olinadi. Ular ilohiy ilhom bilan ilohiy so’zga yaqinlashib boradilar.

So’z san’atida har qanday obraz ifodasi o’z, so’z birikmasi, ibora yoki misra bilan. Ijodkor o’zining bilgilarini obrazga ayantirar ekan, til birliklaridan foydalanadi, albatta. Ijodkor voqelikda fikrini bayon qilish uchun tanlab olgan detal, timsol yoki biror narsa so’zga aylanib, asar tarkibiga kiritiladi. Asarda fikr so’zga so’z orqali obrazga aylanadi.

Masalan, Ravshan Fayzning “Ey vatan” she’rini olaylik.

*Dunyo deganlari bunchalar keng-a,*

*Men yashay bilmadim ko’nglimga yenga:*

*Ketar bo’lsam doim, ey vatan, senga*

*To’ysam o’zim to’ydim, ko’zim to’ymani...[8.60]*

80-90 yillar she’riyatida “Vatan” so’zi juda ko’p qo’llangan. Shu bilan birga bu so’z ba’zan obraz darajasiga ko’tariladi, ba’zan shoir nazarda tutgan obraz ochuvchisi, ifodachisiga aylanadi.

Masalan, *Vatan -So’z-Timsol-Umid-Qadriyat-Intilish-G’oya- Maqsad* tarzida qo’llangan. Shuning natijasida obrazga aylangan. So’zdan har bir shoir istagan she’rida o’zgacha lavha, yangi obraz yaratishi mumkin. Shoir poetik obrazlar orqali hayot haqiqatini boshqa muhitga san’at olamiga yangi makon va zamon doirasiga olib kiradi. Yangi bosqichga ko’taradi, unga o’zgacha sifat beradi.

Avvalo, she’r matnida, qolaversa, shoirning butun she’rlari, shoir yashagan davr badiiy tafakkuri nuqtai nazaridan olib qaralsa, vatan bilan bog’liq she’rlardagi mazmun anglashiladi.


Qaysidir she’rda ramziylik, qaysi birida reallik, boshqa birida psixologik munosabat mavjud. Shu tarzda har bir ijodkorning vatan bilan bog’liq mazmun o’zining orginal talqiniga ega bo’ladi. O’zgacha falsafiy-lirik, polisemik obraz sifatida shakllanadi.

Ijodkor obrazlar orqali hayot haqiqatini san’at olamiga, yangi xronotopga yo’naltiradi, yangi bosqichga ko’taradi, unga o’zgacha sifat olib kiradi. Ma’lumki, hayotda inson boshqa bir kishining tashvishidan unchalik ham tashvishlanavermaydi. San’at orqali berilgan dard esa hamisha boshqalar e’tiborini tortgan.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shoirning tasvir olamida kim turishidan qat’iy nazar uning hislari alohida shaxsning kechinmalari sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun kitobxon bu kabi asarlar mutolaasidan zavq tuyadi. Sababi ijodkor hayot haqiqatining mohiyatiga razm soladi. *Ma’lum bir dalil bilan hamjins, hamohang bo‘lgan boshqa ko‘plab dalillarni kuzatadi, o‘rganadi, ularning nazardan chetda qolgan, unutilgan yoki noma’lum bo‘lgan go‘zallik qirralarini tadqiq etadi va konkret bir obrazga umumlashtirib beradi*[1.5]. Shuning uchun bir obraz yaratilishiga asos bo‘lgan badiiy haqiqat hayot haqiqatiga nisbatan ko‘lamdor. Shuning uchun ham obraz bir necha harakterda paydo bo‘ladi.



# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Poetik obraz she’riyatning ehtimol eng muhim, lekin eng tumanli, sirli, hal qilinmagan va tushuntirib bo‘lmaydigan elementidir. Busiz she’riy asar haqiqatining o‘zi amalga oshmaydi. Qofiyalar qanchalik boy bo‘lmasin, ritm qanchalik mukammal bo‘lmasin, so‘zlar qanchalik jaranglamasin, she’riyat obrasiz o‘likdir. Umuman badiiy obraz, xususan, poetik obraz atrofida hali ham qizg‘in munozaralar davom etmoqda, turli falsafiy qarashlar to‘qnash keladi, san’at tarixiga oid ilmiy risolalar yoziladi...

Murakkabni soddaga, oddiyini murakkabga aylantirish, turli narsalarda va umuman, turli narsalarda umumiylikni topish, obyektlarni timsollash va hissiyotlarni "obyektivlashtirish" poetik obraz yaratishning asosiy usullaridir. She’riy obrazlarda fikr yuritish – kompyuter klaviaturasidagi harflar ulkan olamning, bepoyon va cheksiz koinotning eng kichik zarralari, ahamiyatsiz tarkibiy qismlari ekanligini anglash demakdir! Ammo shu bilan birga, harflardan iborat she’riy satr koinotning butun ulug‘vorligi va cheksizligini to‘liq o‘z ichiga olishga qodir!

Shoir Ravshan Fayzning “Kasalxonada” she’rida odamlar shifo oladigan makon haqida fasllar almashinuvini tasvirlar ekan, qish – kasalxona, sovuq yshoir:

*Men umid degan bir vatanda o‘sdim, [8.14]*

Deya kasalxona – fasllar tashiyotgan mohiyatni butkul o‘zgartirib yuboradi. Bu kasallik – erksizlikb salomatlik –xurlikka ishora qilib shoir yaratgan obraz ramziy harakterga ega. Ishoralash yo‘li bilan maqsadni ochiq aytish obraz tabiatini belgilamoqda.

Nazar Shukurning “Shavkat Rahmonga” she’rida: “*Xayolda yashamoq zavqli naqadar*”, - deya ruhiyat kengliklari, vaqt chegarasini buzib, zamonsizlik, “*Kezaver bunda yo‘q Mag‘rub-u, Mashriq*”, - deya makonsizlikka erishgan ruhiy-psixologik tabiatga ega obrazni tasvirlaydi. Bundan teran ruhiy-psixologik obraz, tragik lavha tug‘iladi.

A‘zam O‘ktamning “Qutlov” she’ri. She’rning boshqa nomi “taqvo”. Unda taqvoning mohiyati aks etadi. She’rda dunyo tashvishlari mo‘minni mahzun qila olmasligi, ibodat va itoatda poklangan qalbning bayrami ko‘rsatib berilgan. Bu asarda biz anglagan obraz ma‘rifiy tabiatga ega bo‘lib ezgulik qalb pokligiga ehtiyoj uyg‘otadi. Tom ma‘noda she’riyatdagi mavjud poetik obrazlarning asli hayotdan inson

Ravshan Fayzning “Ijara uydan ko‘chish” she’ri o‘zining real hayotga yaqinligi bilan kishini mushohadaga chorlaydi. Shoir bu she’r orqali ijarada yashaydigan bir insonning hayoti, qiyinchiliklari, shunday qiyinchilikda ham o‘zining holiga achinishdan ko‘ra, do‘stlariga ahvolini bayon qilolmaganida hafa bo‘ladi.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

She’rda keltirilgan obrazlar orqali biz o‘tish davrida bir ziyoli taqdirida yuz bergan hodisa orqali jamiyatdagi insonlarga munosabatni anglaymiz. Inson hayoti boshqalar uchun bir pul bo‘lgan bir davrda, mol va dunyo inson taqdirini o‘ylashdan ko‘ra muhim bo‘lgan zamon og‘riqlarini his qilamiz.

Eng issiq kunlarim qoldi bu yerda,  
Haydadi muddat ham bermay quv kofir.  
E’tiroz bildirmoq qayda, qayerda,  
Axir men bor-yo‘g‘i bitta musofir.[8.19]

Shoir qahramon psixologiyasini chunon tasvirleydiki, bo‘lib o‘tgan voqealar kechagidek xotiradan o‘taveradi. So‘zni o‘z yo‘rig‘iga solgan qahramon bunday vaziyatda “shamolday beso‘z, besavol” bo‘lar ekan uning holiga achinuvchi, dardiga darmon bo‘luvchi hech kim topilmaydi. Shoir shu o‘rinda o‘tish davri og‘riqlari, erksizlik iztiroblari g‘oyasini “Uxlab yotar edi ota Turonim” deya parokanda yurt obrazi orqali beradi. Yaxshiroq tushuntirish uchun shoir nazarda tutgan “ota” so‘ziga e’tiboringizni qarating. Uyda otaning o‘rni bo‘lgan bir oilada qadriyatlar, ehtirom va hurmat yuzasidan farzandlar odob saqlashadi. Agar ota uyda bo‘lmasa, yoki uxlayotgan bo‘lsa-chi, farzandlar o‘shxlik qiladi, xatto bir-birini hafa qiladi. Shunda ojiz va kichkina farzand o‘zini xafa qilganlarni otasiga aytib bermochi bo‘lsa, ona “Otang uxlayapti, bezovta” qilma, deb to‘xtatadi. Jamiyatda farzandlarini ximoya qilishi kerak bo‘lgan Turon erksizlik uyqusida edi bu payt. Shoir ijara uydagi holatni real tasvirleydiki, bu reallik udagi har bir so‘z obraz tabiatini ochishga xizmat qilgan. Ijara bu dun imtihonining ibtidosi bo‘lsa kerak. Ijaradan ketish esa bu o‘tkinchi dunyodan qaytishning intihosidir.

Xuddi shunday “Ijara uy” obraziga murojaat qilgan ijodkorlardan biri A‘zam O‘ktamdir. Shoir murojaat etgan bu poetik obrazga lirik qahramon qalb kechinmalari singdirilgan. Shoir tasavvuridagi qismatning falsafiy aks etishida ijara uyda tasvirlanayotgan “it” timsoli muhim. A‘zam O‘ktam ijara uy voqealariga “it” timsolini kiritar ekan, unga ramziy ma’no yuklaydi. Shoigacha “it” obrazi Alisher Navoiyda yorga etishish uchun vosita, Ogahiyda baxillik, tegmaganga tosh otish, ko‘rolmaslik sifatini ifodalagan.

*Taraqlardi darvoza tinmay,  
Baqirardi bir to‘da odam.  
Chiqsam yotar bir it o‘lolmay,  
Qop-qora qon eshik ham, er ham[2.19].*

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shoir A’zam O’ktam ushbu “Ijara uydagi hodisa” she’rida itga xos yaxshi va yomon jihatlarni kishilarga, ayniqsa, yo‘lin yo‘qotgan darbadar holatiga ko‘chirib, xulosalar chiqaradi.

*Bir ezildim, tiyolmay yoshni,*

*Bir sog‘indim tug‘ilgan yurtni...[2.19]*

Shoir itning holiga achinish bilan qalbi shu itdek sarson ekanini anglaydi. Aytish mumkin-ki, shoir bu timsol orqali an’anaviy obraz “*oshiq*”ni tasvirlaydi. A’zam O’ktam “Ijara uydagi hodisa” she’riga ramziy ma’no yuklaydi. O’sha she’r yozilgan payt muallif tabiatida musofirlik kayfiyati seziladi. She’rda o’sha davr ba’zi odamlarining bir bahona bilan og‘irning ustidan, yengilning ostidan o’tishlari e’tiborni tortadi. Shoir she’rda munosabat bildirayotgan olomon orqali o‘zining fikrini aytib olish uchun, aslida unga iztirob chekayotgan odamning, boshiga dard tushgan insoning qismati muhim bo‘lmagan kishilar siyratini chizadi. Biri:

*“Bu daydi it, quturgan”, dedi*

*Birov go‘yo meni avaylab.*

*Kelishmagan bo‘lsa qaniydi,*

*Bu eshikka ular ataylab[2.19].*

She’rda muallif o‘zining abgor ahvolini “it” orqali tasvirlar ekan, ikkinchi tomonga “tekin tomosha”dan quruq qolmaslik uchun yopirilib kelgan olomoni qo‘yadi. Bu ikki obraz tabiati bir-biriga teskari. Biri azoblansa, ikkinchisi bundan zavqlanadi. Biri abgor bo‘lsa, ikkinchisi yordam berishdan ko‘ra maslahat berishni afzal ko‘radi. O‘zi dunyo ham shu ikki qarama-qarshi kuchdan iborat. Biri azobdan, unisi rohatdan zavqlanadi. Natijada shoir mahoratining mahsuli sifatida ruhiy azobning o‘ta ta’sirli ko‘rinishi vujudga keladi. Aslida barcha ko‘ngil amallarining qarshisida uning ziddi — qalb illati mavjud ekani o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi.

Aytish mumkinki, XX asrning 80-90 yillari she’riyatida o‘zbeklar hayoti, turmush sharoiti, e’tiqodiy qarashlari xalqning urf-odatlarini, madaniyatini, tarixini anglashga va anglatishga uringan so‘z ustalari paydo bo‘ldi. Bu davrda ijod qilgan shoirlar asarlarida milliy- mahalliy sharoit ruhi, ijtimoiy tarixiy, adabiy-madaniy muhit bilan bog‘liq xususiyatlari, odamlari psixologiyasi va xarakteriga xos milliy unsurlar yaqqol sezilib turadi. Tadqiqotda ko‘zga tashlangan muammo, aynan obrazlar bilan bog‘liq. Bu davr she’riyatida obrazni asosiy va yordamchi deya tasniflash mumkin.

1. Asosiy obrazlar: inson, davr, e’tiqod, erk, ijtimoiy jarayonlar;
2. Yordamchi obrazlar: yurt, fasllar, qushlar, hissiyotlar, ranglar, tabiat hodisalari, o‘simliklar dunyosi va hayvonot olami vakillari.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Biz yuqorida obrazlar statistikasini ko‘rsatishda muallif obrazini e’tibordan, chetda qoldirdik, ammo bu obraz asar mohiyatida muhim ahamiyat kasb etadi va hayot haqidagi hukm va xulosalarni beruvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif obrazisiz boshqa obrazlar berayotgan g‘oya ham, tashiyotgan fikr ham, anglatayotgan tasvir ham qadrsiz. Har bir detal, obraz, timsol muallif obrazida birlashadi.

80-90 yillar she’riyati o‘ziga xos tasvir va bayon uslubiga ega. O‘zigacha ma’lum an’analar bilan tanishib, boshqalar ko‘rib his qilolmaydigan haqiqatlardan hayratlanish, ularni falsafiy idrok qilish, inson sifatida a’molining nima ekanini anglashga intilish – o‘tish davri she’riyati obrazi tabiatining xos xususiyati.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akramov B., She’riyat gavhari: Lirikada obraz muammosi. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 168. 5-bet
2. A’zam O’ktam, Ziyorat, -Farg’ona: Yangiqo‘rg‘on, 1992, 19-b
3. A’zam O’ktam, Sahar vaqti yurak yig‘lar/She’rlar, -Toshkent: Movorounnahr, 2014, -304 b, 38-bet.
4. A`zam O`ktam, Qirqinchi bahor, -T.: Qatortol-Kamolot, 1999, 14-b.
5. A`zam O`ktam, Xabar//SHarq yulduzi, 1995, 1-2 son.
6. Islom tasavvuf manbalari, -T.: O`qituvchi, 2005, 186-b.
7. Xrapchenko M.B. Gorizontы xudojestvennogo obraza. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1986. – S. 80. 50
8. Ravshan Fayz, Kel, ey ko‘nglim: she’rlar va dostonlar, -Toshkent: 1997. B-216. 60-b.
9. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 498.
10. Suvon Meli. Komik katarsis // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2003. – 2-son. – B. 26. 56